

## **KELING, VATANIMIZGA QANOT BO'LAYLIK!**

Keling, vatanimizga qanot bo'laylik!

Dilda ishonch, ishda shijoat bilan,

Tinimsiz harakat, chin mehnat bilan,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Bizning qo'limizda yashnasin diyor,

Faxrdan toshamiz, aytamiz alyor,

O'zimiz olimmiz , bizmiz ijodkor,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Vatanga xizmat-chun belni bog'laylik,

Ustozlar o'gitin dilda saqlaylik,

Xalqimiz ishonchin doim oqlaylik,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Otani e'zozlash - bizga odatdir,

Onani e'zozlash - bizga odatdir,

Oilaning birligi – yurtga saodatdir,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Orzular qilaylik Vatanni o'ylab,

Orzular qilaylik ko'klarni ko'zlab,

Orzular qolmasin shunchaki muzlab,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Dengiz ortin yoritmoq ota merosdir,

Kitob bilan do'st bo'lmoq o'zbekka xosdir,

Har sohada yetuklik bizlarga mosdir,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Intilib yashaylik ajdodlar haqqi,

Izlanib yashaylik avlodlar haqqi,

Chin farzand bo'laylik shu davlat haqqi,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Yurtdoshim, adashib qolmaylik bir dam,

Ogohlik bo'lsin hamroh-u hamdam,

Birlashib oldinga qo'yaylik qadam,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Shukurlar qilaylik, shaxd berdi Olloh,

Shukurlar qilaylik, baxt berdi Olloh,

Bizga mana shunday yurt berdi Olloh,

Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Bizning yurtboshimiz oqil insondir,  
Oqil inson bosh bo'lsa yurt bardavomdir,  
Adolat lashkari sobit qalqondir,  
Keling, Yurtboshimizga qanot bo'laylik!

Mustaqillikni saqlab ko'z qarog'ida,  
Tilimizni asraylik so'z ardog'ida,  
Doim yuksaklik bo'lsin yurt bayrog'ida,  
Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

Maqsadlar niholi o'sib bormoqda,  
Ajdodlar orzusi amal bo'lmoqda,  
Nurafshon kelajak bizni kutmoqda,  
Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!  
Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik!

TTA Oliy ma'lumotli hamshira fakulteti  
102-guruh talabasi Istamqulova Mahliyo